

“TASDIQLANGAN”

“IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti”
aksiyadorlik jamiyati

Kuzatuv kengashi raisi

A.E.Teshabayev

2023 yil “23” yanvar 2/23-son



“TASDIQLANGAN”

Anderrayter - “HBCapital”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Bosh direktori

M.M.Sharobidinov

2023 yil “23” yanvar



OBLIGATSIYALAR EMISSIYA RISOLASI

“IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” aksiyadorlik jamiyati

Identifikatsiya raqami berildi:	R	L	3	0	3	B	0	3	4	1	T	9
------------------------------------	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Egasing nomi yozilgan hujjatsiz (naqdsiz) shakldagi, foizli, nominal qiymati 1 000 000 (bir million) so‘mdan bo‘lgan, 6 000 (olti ming) dona umumiy summasi 6 000 000 000 (olti milliard) so‘m miqdoridagi korporativ obligatsiyalar.

Boshqaruv raisi

Bosh hisobchi



Ziyaydinov O‘ktamjon
Soyibkomolovich

Jo‘raboyev Abroriddin
Abdulxafiz o‘g‘li

2023 yil “23” yanvar

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishiga doir hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatgan investitsiya maslahatchisining nomi: “HBCapital” ma‘suliyati cheklangan jamiyati;

Investitsiya maslahatchisi bilan tuzilgan shartnoma raqami va sanasi 1/2023-sonli, 2023-yil “23” yanvar;

Investitsiya maslahatchisi rahbarining F.I.O. va imzasi M.M.Sharobidinov

2023-yil “23” yanvar



RO‘YXATDAN O‘TKAZUVCHI ORGAN USHBU QIMMATLI QOG‘OZLAR EMISSIYASI RISOLASIDAGI AXBOROTNING TO‘G‘RILIGI UCHUN JAVOBGAR BO‘LMAYDI VA QIMMATLI QOG‘OZLAR CHIQRILISHI TO‘G‘RISIDAGI QARORNI RO‘YXATDAN O‘TKAZISH FAKTI BILAN JOYLASHTIRILAYOTGAN QIMMATLI QOG‘OZLARGA NISBATAN O‘Z MUNOSABATINI BILDIRMAYDI.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI TO‘G‘RISIDA”GI QONUNI 61-MODDASIGA MUVOFIQ, QIMMATLI QOG‘OZLARNI INVESTITSIYA OQIBATLARI INVESTORNING TAVAKKALCHIKLARIDIR.

JAMIYATLAR RISOLADA KELTIRILGAN BARCHA MA‘LUMOTLAR ISHOCHLILIGI, INVESTORLARNI JAMIYATLAR VA ULAR JOYLASHTIRADIGAN QIMMATLI QOG‘OZLAR MASALASIDA CHALG‘ITMASLIGINI TASDIQLAYDI.

1-bob. Jamiyat to'g'risida ma'lumot	
1. Jamiyati nomi	To'liq nomi: O'zbek tili lotin alifbosida: "IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti" aksiyadorlik jamiyati; O'zbek tili kirill alifbosida: "IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti" акциядорлик жамияти; Rus tilida: Акционерное общество "IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti"; Ingliz tilida: "IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti" joint stock company. Qisqartirilgan nomi: O'zbek tili lotin alifbosida: "IMKON FINANS MMT" AJ; O'zbek tili kirill alifbosida: "IMKON FINANS MMT" АЖ; Rus tilida: АО "IMKON FINANS MMT"; Ingliz tilida: JSC "IMKON FINANS MMT". Tashkiliy-huquqiy shakli: aksiyadorlik jamiyati.
2. Jamiyatning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlar	
a) birlamchi davlat ro'yxatidan o'tgan sanasi va raqami	Andijon shahar xokimligi huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasi tomonidan 2011-yil 9-sentyabr kuni 16255-son bilan.
b) davlat ro'yxatidan qayta o'tish sanasi va raqami (qayta ro'yxatdan o'tish amalga oshirilgan bo'lsa)	1. 2019 yil 15-mayda 16255-son bilan. 2. 2020-yil 17-sentyabrda 16255-son bilan. 3. 2020-yil 5-oktyabrda 16255-son bilan. 4. 2022-yil 19-maydan 16255-son bilan. 5. 2022-yil 21-iyulda 16255-son bilan.
v) nomi o'zgargan bo'lsa, avvalgi barcha qisqargan va to'liq nomlari, shuningdek, o'zgartirilgan sanalar ko'rsatiladi;	Jamiyat 2011-yil 9-sentyabrdan 2020-yil 5-oktyabr kunigacha "IMKON FINANS mikrocredit tashkiloti" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklida faoliyatini olib borgan. Jamiyat ta'sischilarining 2020-yil 17-sentyabr kuni 15/20-sonli qaroriga muvofiq 2020-yil 5-oktyabrda tashkiliy-huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyati maqomiga o'zgartirilgan. O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan 2022-yil 21-iyulda jamiyat nomi "IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti" aksiyadorlik jamiyatiga o'zgartirilgan. <u>2011-yil 9-sentyabrdan 2020-yil 5-oktyabr kunigacha qadar jamiyatning to'liq va qisqartirilgan nomi:</u> - To'liq nomi: O'zbek tilida: "IMKON FINANS mikrocredit tashkiloti" mas'uliyati cheklangan jamiyati; Rus tilida: Общество с ограниченной ответственностью "IMKON FINANS mikrocredit tashkiloti"; Ingliz tilida: "IMKON FINANS mikrocredit tashkiloti" Limited Liability Company. - Qisqartirilgan nomi: O'zbek tilida: "IMKON FINANS mikrocredit tashkiloti" MCHJ; Rus tilida: ООО "IMKON FINANS mikrocredit tashkiloti"; Ingliz tilida: "IMKON FINANS mikrocredit tashkiloti" LLC. <u>2020-yil 5-oktyabr 2022-yil 21-iyul kunigacha qadar jamiyatning to'liq va qisqartirilgan nomi:</u> - To'liq nomi: O'zbek tilida: "IMKON FINANS mikrocredit tashkiloti" aksiyadorlik jamiyati; Rus tilida: Акционерное общество "IMKON FINANS mikrocredit tashkiloti"; Ingliz tilida: "IMKON FINANS mikrocredit tashkiloti" joint stock company.

	- Qisqartirilgan nomi: O'zbek tilida: "IMKON FINANS mikroredit tashkiloti" AJ; Rus tilida: AO "IMKON FINANS mikroredit tashkiloti"; Ingliz tilida: JSC "IMKON FINANS mikroredit tashkiloti". <u>2022-yil 21-iyul sanasidan bugungi kunga qadar jamiyatning to'liq va qisqartirilgan nomi:</u> - To'liq nomi: O'zbek tili lotin alifbosida: "IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti" aksiyadorlik jamiyati; O'zbek tili kirill alifbosida: "IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti" акциядорлик жамияти; Rus tilida: Акционерное общество "IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti"; Ingliz tilida: "IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti" joint stock company. - Qisqartirilgan nomi: O'zbek tili lotin alifbosida: "IMKON FINANS MMT" AJ; O'zbek tili kirill alifbosida: "IMKON FINANS MMT" АЖ; Rus tilida: AO "IMKON FINANS MMT"; Ingliz tilida: JSC "IMKON FINANS MMT".
d) agar jamiyat yuridik shaxs (shaxslar)ni qayta tashkil etish natijasida tashkil topgan bo'lsa, qayta tashkil etilgan shaxslar va (yoki) jamiyatlarning vorisi ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.	Muqaddam jamiyat Andijon shahar davlat xizmatlari markazi tomonidan "IMKON FINANS mikroredit tashkiloti" mas'uliyati cheklangan jamiyati negizida 2020-yil 17-sentyabr kuni 16255-sonli reestr raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan holda qayta tashkil etilgan. Ushbu jamiyat ta'sischilarining 2020-yil 17-sentyabr kuni 15/20-sonli qaroriga muvofiq 2020-yil 5-oktyabrda aksiyadorlik jamiyati tashkiliy-huquqiy shakli maqomiga o'zgartirilgan bo'lib, uning huquqiy vorisi hisoblanadi va ilgari tuzilgan barcha shartnomalar hamda majburiyatlar bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Shuningdek, jamiyat O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan 2022-yil 21-iyulda jamiyat nomi "IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti" aksiyadorlik jamiyatiga o'zgarilib, jamiyatning huquqiy vorisi hisoblanadi va ilgari tuzilgan barcha shartnomalar hamda majburiyatlar bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.
3. Jamiyatning joylashgan joyi, telefon va faks raqamlari, rasmiy veb-sayt va elektron pochta ma'lumotlari	Jamiyatning joylashgan manzili (pochta manzili): 170100, O'zbekiston Respublikasi, Andijon viloyati, Andijon shahri, A.Temur shoh ko'chasi, 44-a-uy. Telefon va faks raqamlari: (78) 298-12-35, (74) 228-32-12. Rasmiy veb-sayt va elektron pochta ma'lumotlari: ➤ rasmiy veb-sayti: www.imkonfinans.uz; ➤ elektron pochta manzili: info@imkonfinans.uz.
4. Jamiyatning bank rekvizitlari	- hisob raqami: 2021 6000 7049 3475 9001; - bank nomi: "Alokabank" ATB Andijon viloyat filiali; - bank kodi: 00401; - bank manzili: O'zbekiston Respublikasi, Andijon viloyati, Andijon shahri, Paxtakor ko'chasi, 12-uy.
5. Jamiyatning soliq organi nomi va STIR	Andijon shahar davlat soliq inspeksiyasi, STIR: 302096393
6. Davlat statistika organi tomonidan berilgan kodlar	Tashkiliy-huquqiy shakllar tasniflagichi (THSHT): 153 Ma'muriy-hududiy obyektlarni belgilash tizimi (MHOBT): 1703401 Davlat boshqaruvi idoralari belgilash tizimi (DBIBT): 79994 Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFTUT): 64190

7. Reytinglar mavjudligi haqidagi ma'lumotlar	Reytinglar: ➤ 1-chisi: a) reyting berilgan obyekt: “IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti” MCHJ b) moliya yili: 2019-yil 1 chorak yakuni c) reyting bahosi: (Barqaror) uzB++ d) reytingni bergan tashkilotning to’liq va qisqargan nomi, yuridik va pochta manzillari: • “Ahbor-Reyting” mas’uliyati cheklangan jamiyati reyting agentligi. • “Ahbor-Reyting” MCHJ reyting agentligi. • 100027, Toshkent shahri, Qoratosh ko’chasi 1-uy. • Telefon: 71-238-69-19, info@ahbor-reyting.uz ➤ 2-chisi: a) reyting berilgan obyekt: “IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti” MCHJ b) moliya yili: 2020-yil noyabr holatiga c) reyting bahosi: (Barqaror) uzA d) reytingni bergan tashkilotning to’liq va qisqargan nomi, yuridik va pochta manzillari: • “Ahbor-Reyting” mas’uliyati cheklangan jamiyati reyting agentligi. • “Ahbor-Reyting” MCHJ reyting agentligi. • 100027, Toshkent shahri, Qoratosh ko’chasi 1-uy. • Telefon: 71-238-69-19, info@ahbor-reyting.uz ➤ 3-chisi: a) reyting berilgan obyekt: “IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti” AJ b) moliya yili: 2022-yil mart holatiga c) reyting bahosi: (Barqaror) uzA d) reytingni bergan tashkilotning to’liq va qisqargan nomi, yuridik va pochta manzillari: • “Ahbor-Reyting” mas’uliyati cheklangan jamiyati reyting agentligi. • “Ahbor-Reyting” MCHJ reyting agentligi. • 100027, Toshkent shahri, Qoratosh ko’chasi 1-uy. • Telefon: 71-238-69-19, info@ahbor-reyting.uz Reyting to’g’risida jamiyat bildirishni ma’qul topgan boshqa ma’lumotlar mavjud emas.	
8. Jamiyat filiallari hamda vakilliklari to’g’risida ma’lumot	Jamiyatning filial hamda vakilliklari mavjud emas.	
9. Sho’ba va (yoki) tobe yuridik shaxslar to’g’risida ma’lumot (mavjud bo’lgan taqdirda)	Jamiyat sho’ba va tobe yuridik shaxs jamiyatlarga ega emas.	
10. Jamiyatning O’zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida joylashgan sanoat, bank, moliyaviy guruhlar, holdinglar, konsernlar, uyushmalar, qimmatli qog’ozlar bozori ishtirokchilariga tegishliligi, tovar, valyuta, fond, boshqa birjalardagi a’zoligi, ularning to’la nomlari va manzillari ko’rsatilgan holda.		
Guruhlarning nomi	Nomi	Joylashgan manzili
1	2	3
Sanoat guruhlari	-	-
Bank guruhlari	-	-
Moliyaviy guruhlar	-	-
Holding kompaniyalari	-	-
Konsernlar	-	-
Uyushmalar	O’zbekiston Respublikasi “Mikromoliya tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi”	100083, Toshkent shahri, Navoi ko’chasi, 44-uy.
Qimmatli qog’ozlar bozori	-	-

professional ishtirokchilari		
Birjalar	-	-
11. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi.	“IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy tuzilmasi ilova qilinadi.	
12. Ishchilarning oxirgi 3 yil uchun oʻrtacha yillik soni (odamlar):	2023-yil 1-yanvar holatiga koʻra, xodimlarning oʻrtacha yillik soni 27 nafarni tashkil etadi, shundan: - jamiyatning asosiy faoliyati boʻyicha xodimlar soni 23 nafar; - maʼmuriy-boshqaruv xodimlari 4 nafar. 2022-yil 1-yanvar holatiga koʻra, xodimlarning oʻrtacha yillik soni 22 nafarni tashkil etadi, shundan: - jamiyatning asosiy faoliyati boʻyicha xodimlar soni 18 nafar; - maʼmuriy-boshqaruv xodimlari 4 nafar. 2021-yil 1-yanvar holatiga koʻra, xodimlarning oʻrtacha yillik soni 11 nafarni tashkil etadi, shundan: - jamiyatning asosiy faoliyati boʻyicha xodimlar soni 9 nafar; - maʼmuriy-boshqaruv xodimlari 2 nafar.	
13. Jamiyat ustav kapitalining 5 va undan ortiq foiziga ega boʻlgan tashkilotlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar (ushbu ilovaning 11-bandida koʻrsatilgan yuridik shaxslar bundan mustasno)	Jamiyat ustav kapitalining 5 va undan ortiq foiziga ega boʻlgan tashkilotlar mavjud emas.	
14. Korporativ boshqaruv kodeksining jamiyat tomonidan qabul qilingan sanasi (agar Nizomda uni qabul qilish koʻzda tutilgan boʻlsa)	Jamiyat Korporativ boshqaruv kodeksi 2021-yil 9-fevral kuni aksiyadorlar umumiy yigʻilishi tomonidan tasdiqlangan.	
15. Jamiyat qimmatli qogʻozlarini xarid qilish haqida qaror qabul qilish uchun oshkor qilinishi muhim deb bilgan boshqa maʼlumotlar	Jamiyat qimmatli qogʻozlarini xarid qilish haqida qaror qabul qilish uchun oshkor qilinishi muhim deb bilgan boshqa maʼlumotlar mavjud emas.	
2-bob. Kelgusi qimmatli qogʻozlar chiqarilishini muomalaga kiritish shartlari		
16. Kelgusi aksiyalar chiqarilishi shartlari.	Ushbu chiqarilishda aksiyalar chiqarilishi koʻzda tutilmagan.	
17. Kelgusi obligatsiyalar chiqarilishi shartlari		
a) Obligatsiyalar chiqarilishi haqida maʼlumotlar		
Obligatsiyalar turi	Egasining nomi yozilgan, hujjatsiz shakldagi, foizli korporativ obligatsiyalar.	
Obligatsiyaning nominal qiymati, soʻmda	1 000 000 (bir million) soʻm	
Obligatsiyalar soni	6 000 (olti ming) dona	
Obligatsiyalar chiqarilishining umumiy hajmi	6 000 000 000 (olti milliard) soʻm	
Toʻlov usuli va joylashtiriladigan obligatsiyalar narxi (qiymati)	Obligatsiyalar uchun toʻlov naqdsiz hisob-kitoblar orqali pul oʻtkazish yoʻli bilan Oʻzbekiston Respublikasi milliy valyutasida amalga oshiriladi. Obligatsiyalar boʻyicha pulsiz vositalar bilan toʻlovlar koʻzda tutilmagan. Ushbu chiqarilishdagi bir dona obligatsiyalarning qimmatli qogʻozlarning uyushgan savdolaridagi boshlangʻich bahosi nominal qiymatida, yaʼni 1 000 000 (bir million) soʻmni tashkil qiladi. Obligatsiyalarning joylashtirish narxi nominal qiymatidan past boʻlmagan narxlarda soni cheklanmagan investorlar oʻrtasida ommaviy usulda (ochiq obuna yoʻli bilan) joylashtiriladi. Mazkur chiqarilishdagi obligatsiyalar ovoz beruvchi aksiyalarga ayirboshlanmaydi. Shu sababli ovoz beruvchi aksiyalarga ayirboshlanadigan joylashtirilayotgan obligatsiyalarni olishga boʻlgan imtiyozli huquqlar koʻzda tutilmagan.	

b) Obligatsiyalar bo'yicha daromad olish	
Obligatsiyalar bo'yicha mukofotni aniqlash tartibi	Obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasi, obligatsiyalarning butun muomaladagi muddati uchun belgilanadi va obligatsiyalar nominal qiymatining yillik 28 (yigirma sakkiz) foizni tashkil etadi. Obligatsiya egasi belgilangan muddat oralig'ida obligatsiyaning nominal qiymatidan (amaldagi soliq qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda foiz daromadidan to'lash manbaidan ushlab qolingani soliqni inobatga olgan holda) obligatsiyalarni chiqarish bo'yicha o'rnatilgan shartlarida foizli daromad olish huquqiga ega. Obligatsiyalar bo'yicha foizli daromadlar jamiyat tomonidan tegishli oraliq davrning oxirgi sanasida tuzilgan obligatsiyalar egalari reestrda ro'yxatdan o'tgan obligatsiya egasiga to'lanadi. Bitta obligatsiyaga 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11 va 12-chi oraliq davr uchun foizli daromad quyidagicha aniqlanadi: $D_n = N * C_n * (E - E_f) / 365$ bunda: D_n – obligatsiyalar bo'yicha hisoblangan foizli daromadlari; N – obligatsiyaning nominal qiymati; E – 30 kunlik joylashtirish davrlarining oxirgi sanasi; E_f – hisoblangan oraliq davrdagi, obligatsiyaning sotib olingan sana; C_n – obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasi (yillik hisobda), n-oraliq davrning tartib raqami ($n=1, 2, 3, 4, \dots, 12$). <i>**Izoh: Foizli daromad miqdori bir tiyinga qadar aniqlik bilan belgilanadi.</i> Bir obligatsiyaga har bir oraliq davr uchun yillik foizli daromad miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi: $D_n = N * C_n * E / 365$ bunda: D_n – obligatsiyalar bo'yicha hisoblangan foizli daromadlari; N – obligatsiyaning nominal qiymati; E – 30 kunlik joylashtirish davrlarining oxirgi sanasi; C_n – obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasi (yillik hisobda), n-oraliq davrning tartib raqami ($n=1, 2, 3, \dots, 36$). <i>**Izoh: Foizli daromad miqdori bir tiyinga qadar aniqlik bilan belgilanadi.</i>
Obligatsiyalar bo'yicha mukofotni to'lash davriyligi va (yoki) obligatsiyalar bo'yicha mukofotni to'lash sanasi;	Obligatsiya egalari foizli daromadlari O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan obligatsiyalar muomalasi davrining 30, 60, 90, 120, 150, 180, 210, 240, 270, 300, 330, 360, 390, 420, 450, 480, 510, 540, 570, 600, 630, 660, 690, 720, 750, 780, 810, 840, 870, 900, 930, 960, 990, 1020, 1050 va 1080-chi kunlariga yopilgan obligatsiya egalari reestri asosida hisoblanib to'lab beriladi. Jamiyat oraliq davr tugaganidan keyin 10 (o'n) bank ish kunidan kechiktirmay Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan tuzilgan obligatsiyalar egalari reestrda olingan ma'lumotlarga asoslanib, hisoblangan daromadni obligatsiyalarni ushlab turuvchilarning bank hisob raqamlariga o'tkazadi.
Obligatsiyalar bo'yicha mukofotni to'lashni boshlash sanasi	Har bir obligatsiya bo'yicha foizli daromadni muomala muddati davomida har 30 kunlik oraliq davrlar uchun hisoblanadi va to'lanadi. Bunda obligatsiya bo'yicha foizli daromadlarni to'lash oraliq davrlarning yakuniga o'rnatilgan tartibda Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan shakllantirilgan obligatsiya egalari reestriga asosan amalga oshiriladi. 1-chi oraliq davrning boshlanish sanasi obligatsiyalarni joylashtirish boshlanish sanasiga to'g'ri keladi, shuningdek keyingi oraliq

	davrlarning boshlanish sanalari tartib bo'yicha 31, 61, 91, 121, 151, 181, 211, 241, 271, 301, 331, 361, 391, 421, 451, 481, 511, 541, 571, 601, 631, 661, 691, 721, 751, 781, 811, 841, 871, 901, 931, 961, 991, 1021, 1051 va 1081-chi kunlarga to'g'ri keladi.
Obligatsiyalar bo'yicha mukofotni to'lash tartibi va usullari, obligatsiyalar bo'yicha mukofotni olish usullari	Daromadlarni to'lash uchun jamiyat Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga daromad hisoblangan har bir oraliq davrning oxirgi kuni holatiga obligatsiyalar egalari reestrini shakllantirish uchun so'rov yuboradi. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan taqdim etilgan obligatsiyalar egalarining reestri asosida jamiyat foiz daromadlarini to'lash uchun obligatsiyalar bo'yicha daromad olishga vakolatli shaxslarning har biriga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar miqdorini hisoblab chiqadi. Jamiyat oraliq davr tugaganidan keyin 10 (o'n) bank ish kunidan kechiktirmay Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan tuzilgan obligatsiyalar egalari reestridan olingan ma'lumotlarga asoslanib, hisoblangan daromadni obligatsiyalarni ushlab turuvchilarning bank hisob raqamlariga o'tkazadi. Obligatsiya egasining yozma murojaati asosida daromadlar obligatsiya egasining investitsiya vositachisiga to'lanishi mumkin, keyinchalik ushbu mablag'lar obligatsiya egasining investitsiya vositachisidagi shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi. Agar daromadni to'lash reestrda obligatsiyalar egalarining bank rekvizitlari to'g'risida to'liq bo'lmagan va/yoki noaniq ma'lumotlar mavjud bo'lsa, daromadni to'lash uchun reestrda ro'yxatdan o'tgan obligatsiyalar egalarga foizli daromadni to'lash kechiktirilganligi uchun jamiyat javobgar bo'lmaydi. Bunday vaziyatga yo'l qo'ymaslik uchun obligatsiya egalari joriy vaqt oralig'ining tugashidan oldin jamiyatga o'z bank rekvizitlarini ko'rsatgan holda murojaat yuborishga haqli. Shuningdek, jamiyat Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan daromadlarni to'lash reestri o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi. Agar to'lov manbaida jamiyat tomonidan foizlar ko'rinishidagi daromad solig'ini ushlab qolish bo'yicha soliq qonunchiligi normasi mavjud bo'lsa va obligatsiya egasi daromad solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lsa (shu jumladan, daromad solig'idan ozod qilish), bunday obligatsiya egasi bu haqda jamiyatga oldindan yozma ravishda xabardor qilishi shart. Bunday ogohlantirish xati quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak: imtiyoz qo'llanilgan me'yoriy hujjatning nomi (xatga ilova qilingan ushbu me'yoriy hujjat nusxasi bilan), obligatsiya egasiga bunday imtiyoz qo'llaniladigan asos va obligatsiya egasining bank rekvizitlari. Ogohlantirish xati joriy oraliq davr tugashidan 5 (besh) kalendar kunidan kechiktirmay jamiyatga topshirilishi kerak. Ushbu obligatsiyalar bo'yicha hisoblangan va to'langan foiz daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar har bir oraliq muddat tugaganidan keyin amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda e'lon qilinadi.
v) Obligatsiyalarni joylashtirish tartibi va shartlari	
Joylashtirish usuli	Ushbu chiqarilishdagi korporativ obligatsiyalar soni cheklanmagan investorlar o'rtasida ommaviy usulda (ochiq obuna yo'li bilan) joylashtiriladi. Bunda obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha bitimlar tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdosining savdo qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni sotib olishga bo'lgan cheklovlar	Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarini sotib olishda cheklovlar ko'zda tutilmagan.
Obligatsiyalarni joylashtirish muddati va tartibi	
Obligatsiyalarni joylashtirish muddati	Mazkur chiqarilishdagi obligatsiyalar qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab bir yil davomida joylashtiriladi.
Obligatsiyalar joylashtirilishining boshlanish sanasi	Obligatsiyalarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi xabar ommaviy axborot vositalariga e'lon qilingan sanadan keyingi 15 (o'n beshinchi) kun. Agar obligatsiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi jamiyat hisob-kitob operatsiyalari uchun dam olish kuniga to'g'ri kelsa, bu holda obligatsiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi ushbu kunlardan keyingi birinchi ish kunida boshlanadi. Jamiyat yagona korporativ axborot portalini (www.openinfo.uz), jamiyatning rasmiy veb-sayti (www.imkonfinans.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni 44-modda oltinchi qismining "b" kichik bandida ko'rsatilgan talablarga muvofiq obligatsiyalar davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi axborot oshkor qiladi.
Obligatsiyalar joylashtirishning tugash sanasi	Mazkur chiqarilishning so'nggi obligatsiya joylashtirilgan kun. Biroq obligatsiyalarni joylashtirishni yakunlanish sanasi, mazkur chiqarilish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab bir yildan oshmasligi lozim.
Obligatsiyalarni joylashtirish tartibi:	Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar ochiq obuna usulida soni cheklanmagan investorlar o'rtasida qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdo tashkilotchisi ("Toshkent" Respublika Fond Birjasi aksiyadorlik jamiyati) orqali joylashtirilishi amalga oshiriladi. Bunda obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha bitimlar tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining savdo qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Jamiyat tomonidan ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar, shu jumladan andarrayting xizmatlarini ko'rsatuvchi "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati investitsiya vositachisini jalb qilgan holda amalga oshiriladi. Andarrayter to'g'risida ma'lumotlar: ➤ to'liq nomi: "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati; ➤ qisqartirilgan nomi: "HBCapital" MCHJ; ➤ joylashgan joyi: 170119, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 53-uy; ➤ professional faoliyatni amalga oshirishga uchun berilgan litsenziyaning raqami va sanasi: 2020-yil 25-mayda berilgan 1399-sonli; ➤ litsenziyaning amal qilish muddati: cheklanmagan; ➤ litsenziyani bergan organning nomi: O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorlarini rivojlantirish Agentligi. Jamiyat va obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha andarrayter o'rtasidagi tuzilgan shartnomaga muvofiq quyidagilar andarrayterning asosiy vazifalariga kiradi: ➤ jamiyat bilan birgalikda obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirishning maqbul tuzilmasini shakllantirish; ➤ investitsiya memorandumini tuzish va investorlarga taqdim etish;

	➤ anderrayterlik xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq jamiyat obligatsiyalarini joylashtirish; ➤ obligatsiyalarni joylashtirishdan olingan mablag'larni jamiyatga to'lash; ➤ ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni joylashtirish, qonun hujjatlariga muvofiq soni cheklanmagan investorlar o'rtasida joylashtirilishini amalga oshirish. Mazkur shartnomada, shartnoma bilan belgilangan muddatlarda joylashtirilmagan obligatsiyalarni anderrayter tomonidan o'z hisobidan olinishi, shuningdek ushbu muddat va uni belgilash tartibi nazarda tutilmagan.
Obligatsiyalar realizatsiya qilinadigan joylar (qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining nomi va uning ma'lumotlari);	Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar "Toshkent" Respublika fond birjasida birja qoidalariga asosan bitimlar tuzish yo'li bilan joylashtiriladi. ➤ to'liq nomi: "Toshkent" Respublika fond birjasi aksiyadorlik jamiyati; ➤ joylashgan joyi: 100170, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107-uy; ➤ pochta manzili: 100170, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107-uy; ➤ telefon raqami, elektron pochta manzili va veb-sayti: (71) 267-18-23, info@uzse.uz, www.uzse.uz,
g) Obligatsiyalar muomalasi tartibi va shartlari	
Obligatsiyalarning muomala muddati	Obligatsiyalar muomalasi belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tganidan va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga hisobga qo'yilganidan so'ng amalga oshiriladi. Obligatsiyalar jamiyatga xizmat ko'rsatuvchi investitsiya vositachisidagi depo hisob raqamiga ko'chiriladi. Obligatsiyalar joylashtirilishi boshlangan sanadan boshlab 1080 (bir ming sakson) kun. Mazkur muddat foizlarni to'lash maqsadida har biri 30 kunga teng bo'lgan 36 ta oraliq davrlarga bo'lingan.
Obligatsiyalar muomalasining boshlanish sanasi	Joylashtirish tugagan kundan keyingi kun, shuningdek, ushbu obligatsiyalar muomalasi boshlangan kun hisoblanadi.
Obligatsiyalar muomalasining tugash sanasi	Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar muomalasi boshlangan kundan boshlab 1081 (bir ming sakson bir) kunga o'tgan kun.
Obligatsiyalar muomalasi tartibi	Obligatsiyalarning muomalasi oldi-sotdi bitimlari, shuningdek amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, obligatsiyalarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar orqali amalga oshiriladi. Obligatsiyalar qimmatli qog'ozlarning uyushgan birja va uyushmagan birjadan tashqari savdolari orqali muomalada bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarning uyushgan birja savdolarida obligatsiyalar bo'yicha oldi-sotdi bitimlari qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining qoidalariga asosan, mazkur qimmatli qog'ozlarga mavjud bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda, amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlarning uyushmagan birjadan tashqari savdolarida obligatsiyalar bo'yicha tuziladigan bitimlar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Obligatsiyalarga bo'lgan huquqlar oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda investitsiya vositachisi tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

d) Obligatsiyalarni so'ndirish tartibi va shartlari	
Obligatsiyalarni so'ndirish sanasi	Obligatsiyalarni so'ndirish sanasi, joylashtirishni boshlanish sanasidan boshlab 1081 (bir ming sakson bir) kunga o'tgan kun hisoblanadi. Mazkur korporativ obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorga asosan obligatsiya egalari, o'zlariga tegishli obligatsiyalarni to'liq so'ndirish sanasigacha egalik qilish huquqiga ega.
Obligatsiyalarni so'ndirish usuli	Obligatsiyalarni so'ndirish qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi tomonidan shakllantirilgan obligatsiyalar egalarining reestrtdagi ma'lumotlariga asosan obligatsiyalar egalarining bank rekvizitlariga pul mablag'larini (nominal qiymati va so'nggi oraliq davr uchun foiz daromadlarini) o'tkazish yo'li bilan obligatsiyalar muomalasi boshlangan kundan boshlab 1080 (bir ming sakson) kun holatiga 10 (o'n) bank ish kuni ichida amalga oshiriladi. Agar to'lov summasini amalga oshirishdagi sanada bank hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha dam olish kuniga to'g'ri keladigan bo'lsa, to'lov summasini to'lash shu kundan keyingi birinchi ish kunida amalga oshiriladi. Agar daromadni to'lash reestrtda obligatsiyalar egasining bank rekvizitlari to'g'risida to'liq bo'lmagan va/yoki noto'g'ri ma'lumotlar bo'lsa, jamiyat obligatsiyalar egalariga to'lanadigan mablag'larning kechiktirilganligi uchun javobgar bo'lmaydi. Bunday vaziyatga yo'l qo'ymaslik uchun obligatsiya egalari joriy oraliq vaqt tugashidan oldin jamiyatga o'z bank rekvizitlarini ko'rsatgan holda murojaat qilishga haqli. Shuningdek, jamiyat Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan reestrni o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi. Agar obligatsiyalar egalarining reestrtda obligatsiyalar egalarining bank rekvizitlari to'g'risida ma'lumot bo'lmasa yoki ma'lumotlar o'z ahamiyatini yo'qotsa, ushbu obligatsiyaning egasiga tegishli mablag'lar jamiyat tomonidan saqlanadi va bu pul mablag'lariga saqlangan muddat uchun foiz hisoblanmaydi. Pul mablag'larini so'ndirish uchun to'lovlar amalga oshirilgan kunlar uchun obligatsiyalar egalariga foizlar hisoblanmaydi.
e) Obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish imkoniyati va shartlari	Jamiyat obligatsiyalarini muddatidan oldin so'ndirish, obligatsiyalar joylashtirilgan sanadan boshlab 360 (uch yuz oltmish) kundan ilgari so'ndirishni amalga oshirish mumkin emas, bunda ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi, obligatsiyalarni joylashtirish muddatlarida joylashtirilmasligi, jamiyat ustav kapitali miqdori kamaytirilganda va/yoki jamiyat qayta tashkil etilgan va tugatilish hollari mustasno. Obligatsiya egasi obligatsiyalarning 360, 390, 420, 450, 480, 510, 540, 570, 600, 630, 660, 690, 720, 750, 780, 810, 840, 870, 900, 930, 960, 990, 1020, 1050 va 1080 kunlar oraliq davrlari tugashidan kamida 10 (o'n) ish kunidan oldin jamiyatga ushbu obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha ariza bilan murojaat qilish huquqiga egadir. Jamiyat obligatsiya egasi yuqoridagi muddatlarga amal qilgan holda, o'ziga tegishli bo'lgan obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha arizasini jamiyatga taqdim qiladi. Jamiyat ushbu obligatsiya egasining muddatidan oldin obligatsiyalarini so'ndirish bo'yicha arizasi kelib tushgan kunida, jamiyatning Kuzatuv kengashi ushbu obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish bahosi (qiymati) va ushbu obligatsiya bo'yicha hisoblangan foizli daromadlarini to'lash

	shartlari hamda Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidan ushbu obligatsiyalarni harakatsizlantirish sanasiga obligatsiya egalari reestrini tuzish bo'yicha topshiriqnoma berish yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Jamiyat mazkur qaroriga muvofiq obligatsiya egasiga obligatsiyaning nominal qiymati hamda ushbu obligatsiya bo'yicha hisoblangan foizli daromadlarini ariza olingan paytdan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida arizada ko'rsatilgan bank rekvizitiga o'tkazib berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Obligatsiya egasiga jamiyat ishtirokchilari qaror qabul qilgan kundan boshlab, mazkur obligatsiyalarga to'lovlarni amalga oshirish maqsadida ajratilgan kunlar uchun foizlar to'lanmaydi. Jamiyat ishtirokchilari jamiyat ustaviga muvofiq mazkur obligatsiyalarni muddatidan oldin jamiyat ixtiyori bilan qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish vakolatiga egadir. Jamiyat mazkur obligatsiya egalarining obligatsiyalarini muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga ushbu obligatsiyalarni harakatsizlantirish hamda obligatsiyalarni xarakatsizlantirish sanasiga obligatsiya egalari reestrini tuzish bo'yicha topshiriqnoma beradi. Jamiyat obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish to'g'risida obligatsiya egalarini 10 (o'n) bank ish kuni oldin yozma shaklda obligatsiya egalarining reestrda aks ettirilgan ma'lumotlari (manzillari) bo'yicha xabardor qiladi. Bu holatda jamiyat obligatsiya egalariga obligatsiyaning nominal qiymati hamda obligatsiya bo'yicha hisoblangan foiz daromadlarini jamiyat ishtirokchilari qaror qabul qilgan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariydan olingan obligatsiya egalari reestrda ko'rsatilgan bank rekvizitiga o'tkazib berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Jamiyat ixtiyori bilan obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha jamiyatning ishtirokchilar qarori qabul qilingan kundan boshlab, mazkur obligatsiyalarga to'lovlarni amalga oshirish maqsadida ajratilgan kunlar uchun foizlar to'lanmaydi. Jamiyat yuqorida ko'rsatilgan shartlar yuzaga kelgan kundan 2 (ikki) ish kuni ichida yagona korporativ axborot portalini (www.openinfo.uz), jamiyatning rasmiy veb-sayti (www.imkonfinans.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) ushbu fakt to'g'risida rasmiy xabarni e'lon qilib, ma'lumotlarni obligatsiya egalariga yetkazadi.
j) Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, jamiyat tomonidan obligatsiyalar uchun to'lov sifatida olingan mablag'larni qaytarish tartibi	Ushbu chiqarilgan obligatsiyalar chiqarilishi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, jamiyat amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu holat to'g'risida rasmiy xabar e'lon qiladi, shuningdek Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidan obligatsiyalar chiqarilishi haqiqiy emas deb topilgan sanaga obligatsiyalar egalari ro'yxatini so'raydi. Ushbu chiqarilgan obligatsiyalar haqiqiy emas deb topilgan paytdan e'tiboran jamiyat ushbu qaror asosida chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha foizlarni hisoblashni to'xtatadi. Jamiyat ushbu chiqarilishdagi barcha obligatsiya egalariga amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda obligatsiyalar uchun to'lov sifatida olingan pul mablag'larni, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan foizlarni (obligatsiyalar chiqarilishi haqiqiy emas deb topilgan oraliq davrga), ushbu obligatsiyalar chiqarilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga

	haqiqiy emas topilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida qaytarib berish majburiyatini oladi. Obligatsiyalar chiqarilishi haqiqiy emas deb topilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida "Biznes-Daily Media" Nashriyot uyi mas'uliyati cheklangan jamiyatga tegishli Biznes Daily "Birja" gazetasida, shuningdek yagona korporativ axborot portali (www.openinfo.uz), jamiyatning rasmiy veb-sayti (www.imkonfinans.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) belgilangan tartibda e'lon qilinadi. Jamiyat tomonidan obligatsiya egalariga obligatsiyalarning chiqarilishi haqiqiy emas deb topilganidan so'ng, to'lovlarni amalga oshirish maqsadida ajratilgan kunlar uchun foizlar to'lanmaydi.
z) Ayirboshlanadigan obligatsiyalar to'g'risida ma'lumot	Ushbu chiqarilayotgan obligatsiyalar bo'yicha ayirboshlash amalga oshirilmaydi.
i) Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar bo'yicha ta'minot	Ushbu chiqarilayotgan obligatsiyalar jamiyatning o'z kapitali miqdori doirasida chiqarilayotganligi sababli ta'minot ko'zda tutilmagan.
k) Garov sifatida taqdim etilgan mol-mulkni baholashda qatnashgan baholovchi tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlar	Ushbu chiqarilayotgan obligatsiyalar bo'yicha ta'minot sifatida garovga mol-mulk taqdim etilmaydi, shuning uchun baholash tashkiloti jalb qilinmagan.
l) Bank kafolatini taqdim etgan bank to'g'risidagi ma'lumotlar	Ushbu chiqarilayotgan obligatsiyalar jamiyat o'z mablag'i doirasida chiqarilayotganligi sababli bank kafolati taqdim etilmaydi.
m) Obligatsiyalarning ushbu chiqarilishi bo'yicha jamiyatning majburiyatlarini sug'urtalagan sug'urta tashkiloti to'g'risida ma'lumotlar	Ushbu chiqarilayotgan obligatsiyalar jamiyat o'z mablag'i doirasida chiqarilayotganligi sababli sug'urta majburiyatlari taqdim etilmaydi.
n) Obligatsiyalarni joylashtirishdan olingan pullardan foydalanishning maqsadi	Jamiyat ustavi hamda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur korporativ obligatsiyalarni joylashtirishdan olingan pul mablag'laridan mikrokredit olishga ehtiyoji mavjud yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlash maqsadida foydalaniladi.
o) Obligatsiyalar egasiga beriladigan huquqlar	Ushbu chiqarilishdagi har bir obligatsiya o'z egasiga teng huquqlarni beradi. Obligatsiya egasi quyidagi huquqlarga ega: ➤ belgilangan muddatda so'ndirilyotgan obligatsiyalar bo'yicha obligatsiyalarning nominal qiymatini va kupon daromadini foizlar ko'rinishida olish; ➤ obligatsiya egalari qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'z tavakkalchiliklarini sug'urta qildirish; ➤ depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish; ➤ "IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti" aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali miqdori kamaytirilganda, qayta tashkil etilganda va/yoki tugatilgan taqdirda obligatsiyalar egasi, obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarning bekor qilinishini yoki muddatidan oldin bajarilishini hamda yetkazilgan zararining qoplanishini talab qilishga; ➤ amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, jamiyat obligatsiya egalariga kiritilgan mablag'larni, shuningdek, to'lanishi lozim bo'lgan foizlarni (haqiqiy muomala davri uchun) qaytarish majburiyatini oladi (obligatsiyalar chiqarilishi haqiqiy emas deb topilgan oraliq davrga); ➤ obligatsiya egasi o'z obligatsiyalarini erkin sotish va boshqacha tarzda begonalashtirish huquqiga ega; ➤ jamiyatdan obligatsiyalar chiqarish shartlariga rioya

	qilishning iloji yo'qligi to'g'risida investorlarni darhol yozma ravishda xabardor qilishni talab qilish; ➤ jamiyatning obligatsiyalar egalari oldidagi majburiyatlarini bajarishi va ushbu majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish; ➤ mazkur qarorda belgilangan vazifalarni bajarish munosabati bilan davlat organlari va sudlarda o'z manfaatlarini himoya qilish; ➤ obligatsiya egasi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.
p) Investor tomonidan sotib olingan obligatsiyalar bo'yicha olingan daromadni soliqqa tortish to'g'risidagi ma'lumot	Investor tomonidan sotib olingan obligatsiyalar bo'yicha olingan daromadlarni soliqqa tortish kuponlarni to'lash sanasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq Kodeksida belgilangan soliq stavkalariga muvofiq amalga oshiriladi. Agar to'lov manbaida jamiyat tomonidan foizlar ko'rinishidagi daromad solig'ini ushlab qolish bo'yicha soliq qonunchiligi normasi mavjud bo'lsa va obligatsiya egasi daromad solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lsa (shu jumladan, daromad solig'idan ozod qilish), bunday obligatsiya egasi bu haqda jamiyatga oldindan yozma ravishda xabardor qilishi shart. Bunday ogohlantirish xati quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak: imtiyoz qo'llanilgan me'yoriy hujjatning nomi (xatga ilova qilingan ushbu me'yoriy hujjat nusxasi bilan), obligatsiya egasiga bunday imtiyoz qo'llaniladigan asos va obligatsiya egasining bank rekvizitlari. Ogohlantirish xati joriy oraliq davr tugashidan 5 (besh) kalendar kunidan kechiktirmay jamiyatga topshirilishi kerak. Ushbu obligatsiyalar bo'yicha hisoblangan va to'langan foiz daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar har bir oraliq muddat tugaganidan keyin amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda e'lon qilinadi.
r) Ro'y berishi oqibatida jamiyatning obligatsiyalari bo'yicha majburiyatlar bajarilmasligi ehtimoli bo'lgan hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar	Jamiyat obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarini quyidagi vaziyatlar yuzasidan bajara olmasligi mumkin: ➤ Jamiyat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida jamiyatni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganda; ➤ Jamiyat faoliyatini majburiy (Markaziy Bank tomonidan litsenziya chaqirib olinganda) shaklda tugatish to'g'risidagi qaror qilinganda; ➤ Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida»gi qonun va boshqa qonun hujjatlari talablari, shu jumladan litsenziya talablari va shartlari buzilganda; ➤ Jamiyatni auditorlik tashkiloti tomonidan yil yakunlari bo'yicha to'lovga layyiqsiz deb topilganda. Jamiyat quyida ko'rsatilgan ma'lumotlarini belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarida, shuningdek yagona korporativ axborot portali (www.openinfo.uz), jamiyatning rasmiy veb-sayti (www.imkonfinans.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) e'lon qilinadi. Jamiyat obligatsiyalari bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik ehtimoli (bundan buyon matnda - defolt) yuzaga kelganda sodir bo'lishini oldindan ko'rish yoki oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar tushuniladi (tabiat hodisalari, harbiy harakatlar, vakolatli organlarning taqiqlovchi yoki cheklovchi harakterdagi harakatlari va boshqalar). Yuqoridagi vaziyatlar yuzaga kelganda, jamiyat majburiyatlarini bajara olmasligini oldini olish maqsadida jamiyat tomonidan zaxira fondi tashkil qilingan bo'lib, unga muvofiq jamiyat

	Ustavida “Jamiyatning zaxira fondi boshqa mablag‘lar mavjud bo‘lmagan taqdirda, jamiyatning zararlari o‘rnini qoplash, jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo‘ljallanadi” deb keltirilgan. Jamiyat obligatsiyalar bo‘yicha majburiyatlarni bajara olmasligi yoki lozim darajada bajara olmasligi yuzasidan qaror qabul qilish kuniga Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysidan obligatsiya egalari reestrini oladi. Jamiyat mazkur reestrni olish bo‘yicha Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysiga 5 (besh) bank ish kuni oldin obligatsiya egalari reestrini shakllantirish uchun belgilangan tartibda topshiriqnoma beradi. Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi tomonidan taqdim qilingan obligatsiya egalari reestriga muvofiq, jamiyat obligatsiyalar bo‘yicha majburiyatlarni bajara olmasligi yoki lozim darajada bajara olmasligi yuzasidan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi kun tartibida ko‘rib chiqib, (obligatsiyalarini muomaladan chiqarish va ularga hisoblangan foizlarni to‘lash yuzasidan) qarorlar qabul qiladi. Obligatsiyalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish imkonsiz bo‘lgan taqdirda, obligatsiyalar bo‘yicha foizlarni to‘lash majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda obligatsiya egalarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha mumkin bo‘lgan harakatlari quyidagilar: ➤ jamiyatga bajarilmagan majburiyatlarini qonunchilikda belgilangan tartiblarda bajarilishi yuzasidan murojaat qilish; ➤ qimmatli qog‘ozlar bozorida o‘z huquqlari buzilganligi to‘g‘risidagi da‘vo arizasi bilan sudga murojaat qilish; ➤ qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi va boshqa davlat organlariga ariza bilan murojaat qilish.
s) Jamiyat obligatsiyalar bo‘yicha majburiyatlarini bajarishdan bosh tortgan taqdirda, obligatsiyalar egalari harakatlarining tavsifi	Jamiyat obligatsiyalar bo‘yicha daromadlarni qaytarish va to‘lash bo‘yicha majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi bo‘yicha jamiyat Kuzatuv kengashi qarori qabul qilingan kundan 5 (besh) bank ish kuni ichida, obligatsiya egalarini Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi tomonidan shakllantirilgan obligatsiya egalarining reestrda qayd etilgan ma‘lumotlar asosida yozma shaklda xabardor qiladi hamda belgilangan tartibda qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi veb-sayti e‘lon qiladi. Jamiyat Kuzatuv kengashi yig‘ilishida, jamiyat obligatsiyalar bo‘yicha bajarilmagan majburiyatlar miqdori, majburiyatlarning bajarilmasligining sababi, shuningdek, obligatsiyalar egalarining o‘z talablarini qondirish bo‘yicha harakatlari tasnifi bayon qilinadi. Jamiyat obligatsiyalar bo‘yicha majburiyatlarini bajarishdan bosh tortgan taqdirda, obligatsiya egalari o‘z talablarini qondirishi mumkin bo‘lgan harakatlari quyidagilar: ➤ jamiyatga bajarilmagan majburiyatlarini qonunchilikda belgilangan tartiblarda bajarilishi yuzasidan murojaat qilish; ➤ qimmatli qog‘ozlar bozorida o‘z huquqlari buzilganligi to‘g‘risidagi da‘vo arizasi bilan sudga murojaat qilish; ➤ qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi va boshqa davlat organlariga ariza bilan murojaat qilish.
t) jamiyatning to‘lov agenti to‘g‘risidagi ma‘lumot (mavjud bo‘lgan taqdirda)	Jamiyat to‘lov agenti to‘g‘risidagi ma‘lumotlar: ➤ to‘lov agentining to‘liq nomi: Chet el kapitali ishtirokidagi “INVEST FINANCE BANK” aksiyadorlik tijorat banki Andijon viloyat filiali; ➤ joylashgan manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Andijon

	viloyati, Andijon shahri, Istiqlol ko'chasi, 38-uy; ➤ bank Kodi: 01114; ➤ STIR: 207210194; ➤ elektron pochta manzili: info@infinbank.com ➤ rasmiy veb-sayti: www.infinbank.com ➤ aloqa telefoni: 74-228-45-09 ➤ jamiyat va to'lov agenti o'rtasidagi shartnoma sanasi: 07.01.2021y., raqami: 005-sonli. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarni naqd pulda to'lanishi ko'zda tutilmagan.
3-bob. Emissiya to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlar	
18. Ushbu qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilgan jamiyat organi va qaror qabul qilingan sana	Obligatsiyalarning ushbu chiqarilishi bo'yicha qaror "IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti" aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashining 2023-yil 23-yanvardagi 2/23-sonli yig'ilish qarori qabul qilingan.
19. Ushbu chiqarilish bo'yicha jamiyat tomonidan jalb qilingan qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari haqida ma'lumot	Jamiyat tomonidan ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar, shu jumladan anderrayting xizmatlarini ko'rsatuvchi "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati investitsiya vositachisini jalb qilgan holda amalga oshiriladi. Anderrayter to'g'risida ma'lumotlar: ➤ to'liq nomi: "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati; ➤ qisqartirilgan nomi: "HBCapital" MCHJ; ➤ joylashgan joyi: 170119, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 53-uy; ➤ professional faoliyatni amalga oshirishga uchun berilgan litsenziyaning raqami va sanasi: 2020-yil 25-mayda berilgan 1399-sonli; ➤ litsenziyaning amal qilish muddati: cheklanmagan; ➤ litsenziyani bergan organning nomi: O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorlarini rivojlantirish Agentligi; ➤ jamiyat va qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi o'rtasida tuzilgan shartnomasi sanasi va raqami: 2023-yil 23-yanvar kungi 1/2023-sonli anderrayting xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma.
20. Mustaqil auditor to'g'risidagi axborot	Tugallangan 2022 moliya yilida jamiyat moliya hisoboti auditini amalga oshirgan auditorlik tashkilotining to'liq rasmiy nomi: ➤ auditorning familiyasi, ismi, sharifi: Nasirdinova Yorqinoy Ibragimova; ➤ litsenziya raqami va berilgan sana: 2019-yil 05-aprel, 00777-son; ➤ auditorlik firmasi nomi: "ASR AUDIT ANDIJON" auditorlik tashkiloti; ➤ manzil: Andijon shahri, A.Navoiy shoh ko'chasi, 33-uy. ➤ telefon: (74) 223-50-41, (99) 935-04-05 ➤ e-mail: asraudit@mail.ru Tugallangan 2021 moliya yilida jamiyat moliya hisoboti auditini amalga oshirgan auditorlik tashkilotining to'liq rasmiy nomi: ➤ auditorning familiyasi, ismi, sharifi: Nasirdinova Yorqinoy Ibragimova; ➤ litsenziya raqami va berilgan sana: 2019-yil 05-aprel, 00777-son; ➤ auditorlik firmasi nomi: "ASR AUDIT ANDIJON" auditorlik tashkiloti; ➤ manzil: Andijon shahri, A.Navoiy shoh ko'chasi, 33-uy. ➤ telefon: (74) 223-50-41, (99) 935-04-05 ➤ e-mail: asraudit@mail.ru

	Tugallangan 2020 moliya yilida jamiyat moliya hisoboti auditini amalga oshirgan auditorlik tashkilotining to'liq rasmiy nomi: ➤ auditorning familiyasi, ismi, sharifi: Soliyev Abduqaxxor Abdullayevich; ➤ litsenziya raqami va berilgan sana: 2020 yil 23 yanvar, 00840-son; ➤ auditorlik firmasi nomi: "Agro taxlil" auditorlik tashkiloti Vodiy mintaqaviy filiali; ➤ manzil: Andijon shahri, Tinchlik ko'chasi, 8-uy. ➤ telefon: (74) 223-14-62
21. Mazkur chiqarilish bilan bog'liq tegishli xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzilgan yuridik va moliya masalalari bo'yicha maslahatchilarning to'liq nomi	Jamiyat tomonidan mazkur chiqarilish bilan bog'liq tegishli xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasida 2023-yil 23-yanvar kuni 1/2023-sonli "Anderrayter va Investitsiya maslahatchisi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha" shartnomasi tuzilgan.
22. Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi tashkilotlar to'g'risida ma'lumot	Jamiyat obligatsiyalari huquqlari hisobi O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va Investitsiya vositachilari tomonidan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda yuritiladi. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi to'g'risida: ➤ to'liq nomi: "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" davlat korxonasi; ➤ tashkiliy huquqiy shakli: davlat korxonasi; ➤ joylashgan yeri va pochta manzili: 100170, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107-uy, 2-qavat; ➤ telefon: (71) 267-37-42. e-mail: info@deponet.uz, veb-sayti: www.deponet.uz. ➤ shartnoma sanasi va raqami: 19.10.2020-yil, 2227/E-son. ➤ Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 21-maydagi 263-sonli qaroriga asosan yuritadi. Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining haqida ma'lumot: ➤ to'liq nomi: "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati; ➤ tashkiliy huquqiy shakli: mas'uliyati cheklangan jamiyati; ➤ joylashgan yeri va pochta manzili: 170119, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 53-uy; ➤ telefon: (74) 234-35-39. e-mail: info@hbcapital.uz, veb-sayti: www.hbcapital.uz. ➤ shartnoma sanasi va raqami: 20.10.2020-yil, 59-son. ➤ "HBCapital" MCHJ o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorlarini rivojlantirish Agentligi tomonidan 2020-yil 25-mayda berilgan 1399-sonli litsenziyaga asosan yuritadi.
23. Ro'yxatga olingan obligatsiyalar chiqarilishlari to'g'risidagi ma'lumotlar	Mazkur obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanagacha jamiyatning ro'yxatga olingan obligatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar: Birinchi chiqarilishi: ➤ obligatsiyalarning umumiy miqdori: 4 000 000 000 (to'rt milliard) so'm; ➤ obligatsiyalarning turi: foizli, korporativ obligatsiya; ➤ obligatsiyalarning nominal qiymati: 1 000 000 (bir million) so'm; ➤ obligatsiyalar chiqarilishining davlat ro'yxatidan o'tgan sana va raqami: 2020-yil 15-dekabr; raqami: B0341; ➤ chiqarish bo'yicha joylashtirilgan obligatsiyalar miqdori: 0

so'm;

- obligatsiyalarni joylashtirishda jalb etilgan mablag'larning umumiy miqdori: 0 so'm;
- obligatsiya chiqarilishi bo'yicha hisoblangan va to'langan mukofot miqdori: 0 so'm;
- qayta sotib olingan obligatsiyalar miqdori: 0 so'm;
- joylashtirilmagan obligatsiyalar foizi: 0 foiz;
- joylashtirmaganlik sababi: investor tomonidan talabi bo'lmaganligi sababli obligatsiyalar joylashtirilmagan;
- jamiyatning obligatsiyalar egalari oldidagi majburiyatlarini bajarmasligi holatlari bo'yicha ma'lumotlar (obligatsiyalar bo'yicha mukofotlarni to'lamaslik (to'lovning kechiktirilishi), jumladan, bajarilmagan majburiyatlar hajmi va qancha muddatga kechiktirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan, ammo to'lab berilmagan mukofot miqdori (tur va chiqarishlar bo'yicha alohida): bunday holatlar mavjud emas;
- ma'lum bir obligatsiyalar chiqarilishini joylashtirish yoki muomalaga chiqarish to'xtatilgan (tiklangan) bo'lsa, bunday qarorni qabul qilgan davlat organi, asos va qaror qabul qilingan sana ko'rsatiladi: bunday holatlari mavjud emas;
- jamiyatning so'ndirilmagan ayirboshlanadigan obligatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar alohida ko'rsatiladi: Ushbu obligatsiyalar chiqarilishi, korporativ obligatsiyalar belgilangan muddatlarda joylashtirilmaganligi sababli O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 22-dekabrda 15-09/027-sonli qaroriga asosan joylashtirilmagan deb topilgan hamda 2022-yil 21-yanvardagi 07/46-01-02/007-sonli qarorga asosan obligatsiyalarning chiqarilishi bekor qilingan. Jamiyat tomonidan ayirboshlanadigan obligatsiyalarini chiqarilmaganligi sababli jamiyatning so'ndirilmagan ayirboshlanadigan obligatsiyalari mavjud emas.

Ikkinchi chiqarilishi:

- obligatsiyalarning umumiy miqdori: 3 000 000 000 (uch milliard) so'm;
- obligatsiyalarning turi: foizli, korporativ obligatsiya;
- obligatsiyalarning nominal qiymati: 1 000 000 (bir million) so'm;
- obligatsiyalar chiqarilishining davlat ro'yxatidan o'tgan sana va raqami: 2022-yil 25-iyul; raqami: B0341-2;
- chiqarish bo'yicha joylashtirilgan obligatsiyalar miqdori: 3 000 000 000 (uch milliard) so'm;
- obligatsiyalarni joylashtirishda jalb etilgan mablag'larning umumiy miqdori: 3 000 000 000 (uch milliard) so'm;
- obligatsiya chiqarilishi bo'yicha hisoblangan va to'langan mukofot miqdori: 214 604 300 (ikki yuz o'n to'rt million olti yuz to'rt ming uch yuz) so'm;
- qayta sotib olingan obligatsiyalar miqdori: 0 so'm;
- joylashtirilmagan obligatsiyalar foizi: jamiyat tomonidan obligatsiyalar belgilangan muddatlarda to'liq, 100 foiz joylashtirilgan;
- joylashtirmaganlik sababi: mavjud emas, sababi to'liq joylashtirilgan;
- jamiyatning obligatsiyalar egalari oldidagi majburiyatlarini bajarmasligi holatlari bo'yicha ma'lumotlar (obligatsiyalar bo'yicha mukofotlarni to'lamaslik (to'lovning kechiktirilishi), jumladan, bajarilmagan majburiyatlar hajmi

	va qancha muddatga kechiktirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan, ammo to'lab berilmagan mukofot miqdori (tur va chiqarishlar bo'yicha alohida): bunday holatlar mavjud emas; ➤ ma'lum bir obligatsiyalar chiqarilishini joylashtirish yoki muomalaga chiqarish to'xtatilgan (tiklangan) bo'lsa, bunday qarorni qabul qilgan davlat organi, asos va qaror qabul qilingan sana ko'rsatiladi: bunday holatlari mavjud emas; ➤ jamiyatning so'ndirilmagan ayirboshlanadigan obligatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar alohida ko'rsatiladi: bunday holatlari mavjud emas.
--	---

4-bob. Jamiyatning boshqaruv va ijro organlari to'g'risidagi ma'lumot

24. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar

Kuzatuv kengashi raisi va a'zolarining F.I.Sh.	Kuzatuv kengashi a'zolari saylangan sana va ularning so'nggi 3 yil ichidagi va hozirgi vaqtdagi mehnat faoliyati to'g'risidagi xronologik tartibdagi ma'lumotlar	Kuzatuv kengashi har bir a'zosiga tegishli jamiyatning ustav fondidagi ulush	
		Aksiya soni donalarda	Ulush foizda (%)
Teshabayev Akmaljon Ergashevich	<u>Kuzatuv kengashi raisi. Saylangan sana – 29.04.2022-y.</u> <u>Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:</u> 06.07.2019 – h.v. “IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” AJ Markaziy kengash raisi 01.04.2017 – 06.07.2019 yy. “IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti” MCHJ maslaxatchisi	4 138 873	57,45
Mamatov Adxamjon Axmedovich	<u>Kuzatuv kengashi a'zosi. Saylangan sana – 29.04.2022-y.</u> <u>Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:</u> 01.01.2020 – h.v. “IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” AJ Kengash bo'limi Rais maslahatchisi 17.12.2019 – 03.08.2020 yy. “INVEST FINANCE BANK” ATB Andijon viloyati filiali Bek-ofis boshlig'i 09.09.2019 – 16.12.2019 yy. “INVEST FINANCE BANK” ATB Andijon viloyati filiali Bek-ofis boshlig'i v.b. 02.05.2015 – 09.09.2019 yy. “IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti” MCHJ Kengash raisi	1 622 667	22,52
Akbarov Davron Ikromovich	<u>Kuzatuv kengashi a'zosi (mustaqil a'zo). Saylangan sana – 29.04.2022-y.</u> <u>Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:</u> 01.03.2021 – h.v. “IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” AJ Kengash bo'limi maslahatchisi 01.01.2020 – h.v. “ZAM-ZAM 2019” XK, ishchi 22.10.2019 – 01.04.2020 yy. “Hamkorbank” ATB Xalqaro moliya institutlari bilan ishlash bo'limi mutaxassisi 01.10.2019 – h.v. “SHARDA” Xalqaro Universitetida o'qituvchi	0	0

25. Jamiyat kuzatuv kengashi qo'mitalari to'g'risidagi axborot

Jamiyatda kuzatuv kengashi va qo'mitalari mavjud emas.

26. Jamiyatning kollegial (yakka) ijroiya organi to'g'risida ma'lumotlar

Ijroiya organi vazifasini yakka bajaruvchi shaxsning F.I.Sh.	Ijroiya organi vazifasini yakka bajaruvchi shaxs saylangan sana, so'nggi 3 yil ichidagi va hozirgi vaqtdagi mehnat faoliyati to'g'risidagi xronologik tartibdagi ma'lumotlar	Yakka ijroiya organiga tegishli jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining jamiyat ustav kapitalidagi ovoz beruvchi aksiyalarning umumiy hajmiga foiz nisbati
--	--	---

Ziyaydinov O'ktamjon Soyibkomolovich	Boshqaruv raisi. Saylangan sana – 29.04.2022-yil. Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati: 29.04.2022 – h.v. “IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” AJ Boshqaruv raisi 06.07.2021 – 29.04.2022 yy. “IMKON FINANS mikroredit tashkiloti” AJ Boshqaruv raisi v.v.b. 15.12.2020 – 05.07.2021 yy. “IMKON FINANS mikroredit tashkiloti” AJ operatsion boshqarma boshlig'i 11.02.2019 – h.v. “SARMOYA” MCHJ qo'shma korxona raxbari (o'rindoshlik bo'yicha). 01.2015 - 02.2019 yy. “INTEGRAL BUSINESS GROUP” MCHJ raxbari	0																					
27. Jamiyat ijroiya organining vazifasi topshirilgan tashkilot to'g'risidagi ma'lumot	Mazkur emissiya risolasi tasdiqlangunga qadar, jamiyat ijroiya organining vazifasi boshqa tashkilotga topshirilmagan.																						
28. Mukofot hamda ish haqining umumiy miqdori, shuningdek, so'nggi 2 yil uchun mazkur Risolaning 24, 26 va 27-bandlarida ko'rsatilgan jamiyatning shaxslariga berilgan va to'langan imtiyozlar	Jamiyat tomonidan 3 yil ichida quyidagi shaxslarga berilgan ish haqqi umumiy miqdori va to'langan imtiyozlar: (ming. so'mda) <table><tr><th>Mazmuni</th><th>2020-yil bo'yicha</th><th>2021-yil bo'yicha</th><th>2022-yil bo'yicha</th></tr><tr><td>Jamiyat kuzatuv kengash a'zolariga jami to'langan ish haqqi miqdori</td><td>61 338,0</td><td>146 000,0</td><td>150 000,0</td></tr><tr><td>Jamiyat ijroiya organiga jami to'langan ish haqqi miqdori</td><td>45 000,0</td><td>60 000,0</td><td>72 000,0</td></tr><tr><td>Jamiyat ijroiya organining vazifasi topshirilgan tashkilotga to'langan ish haqqi miqdori</td><td>-</td><td>-</td><td>-</td></tr><tr><td>Jami:</td><td>106 338,0</td><td>206 000,0</td><td>222 000,0</td></tr></table>			Mazmuni	2020-yil bo'yicha	2021-yil bo'yicha	2022-yil bo'yicha	Jamiyat kuzatuv kengash a'zolariga jami to'langan ish haqqi miqdori	61 338,0	146 000,0	150 000,0	Jamiyat ijroiya organiga jami to'langan ish haqqi miqdori	45 000,0	60 000,0	72 000,0	Jamiyat ijroiya organining vazifasi topshirilgan tashkilotga to'langan ish haqqi miqdori	-	-	-	Jami:	106 338,0	206 000,0	222 000,0
Mazmuni	2020-yil bo'yicha	2021-yil bo'yicha	2022-yil bo'yicha																				
Jamiyat kuzatuv kengash a'zolariga jami to'langan ish haqqi miqdori	61 338,0	146 000,0	150 000,0																				
Jamiyat ijroiya organiga jami to'langan ish haqqi miqdori	45 000,0	60 000,0	72 000,0																				
Jamiyat ijroiya organining vazifasi topshirilgan tashkilotga to'langan ish haqqi miqdori	-	-	-																				
Jami:	106 338,0	206 000,0	222 000,0																				
29. Jamiyatning 5 va undan ortiq foiz aksiyalari (ulushi)ga ega bo'lgan aksiyadorlari (ishtirokchilari)	Jamiyatning 5 va undan ortiq foiziga ega aksiyadorlar quyidagilar hisoblanadi. 1. Teshabayev Akmaljon Ergashevich: ➤ soliq to'lovchining individual raqami: 484570155; ➤ aksiyadorning ustav kapitalida ishtirok etish ulushiga egalik qilishni boshlagan sana: 21.10.2020-yil; ➤ aksiyadorning jamiyat ustav kapitalidagi ulushi umumiy hajmiga foiz nisbatida: 57,45%. 2. Mamatov Adxamjon Axmedovich: ➤ soliq to'lovchining individual raqami: 431375661; ➤ aksiyadorning ustav kapitalida ishtirok etish ulushiga egalik qilishni boshlagan sana: 21.10.2020-yil; ➤ aksiyadorning jamiyat ustav kapitalidagi ulushi umumiy hajmiga foiz nisbatida: 22,52%. 3. Pyagay Mixail Vadimovich: ➤ soliq to'lovchining individual raqami: 593076944; ➤ aksiyadorning ustav kapitalida ishtirok etish ulushiga egalik qilishni boshlagan sana: 15.04.2022-yil; ➤ aksiyadorning jamiyat ustav kapitalidagi ulushi umumiy hajmiga foiz nisbatida: 20,00%.																						
30. Jamiyatning boshqa affillangan shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlar	1. Teshabayev Akmaljon Ergashevich - Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi / Jamiyatning yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga egalik qiluvchi shaxs (asos sodir etilgan sana: 29.04.2022-yil); 2. Mamatov Adxamjon Axmedovich – Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zosi / Jamiyatning yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga egalik qiluvchi shaxs (asos sodir etilgan sana: 29.04.2022-yil);																						

	3. Akbarov Davron Ikromovich - Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zosi (asos sodir etilgan sana: 29.04.2022-yil); 4. Ziyaydinov O'ktamjon Soyibkomolovich – Jamiyat Boshqaruv raisi (asos sodir etilgan sana: 29.04.2022-yil); 5. Pyagay Mixail Vadimovich - Jamiyatning yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga egalik qiluvchi shaxs (asos sodir etilgan sana: 15.04.2022-yil).
5-bob. Jamiyatining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati ko'rsatkichlari	
31. Jamiyat faoliyati turlari	Jamiyat O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2020-yil 22-oktyabrda 40-sonli Mikrokredit tashkiloti faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaga asosan faoliyat ko'rsatadi. Jamiyatning asosiy faoliyat turi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishdan iborat. O'z faoliyat maqsadiga erishish uchun jamiyat quyidagi mikromoliyaviy xizmatlarni amalga oshiradi: ➤ mikrokreditlar yoki mikroqarzlarni berish; ➤ qarz majburiyatlarini sotib olish va sotish (faktoring); ➤ jamiyat lizing beruvchi sifatida ishtirok etadigan mikrolizing berish (moliyaviy ijara); ➤ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan iste'mol kreditlari berish; ➤ korporativ obligatsiyalarni chiqarish va ularni investorlar o'rtasida joylashtirish; ➤ banklar, sug'urta kompaniyalari va boshqa moliya tashkilotlarning agenti sifatida agentlik xizmatlarini faqat naqdsiz shaklda ko'rsatish va agentlik bitimining mavjudligi to'g'risida axborotlarni oshkor qilish, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha qonun hujjatlari normalarini bajarish sharti bilan qatnashish; ➤ makroprudensial nazorat doirasida belgilangan normalarga rioya qilinishini ta'minlaydigan hajmlarda kreditlarni (qarzlarni) jalb qilish; ➤ chakana xizmatlar, shu jumladan naqdsiz shaklda ko'rsatiladigan mikromoliyaviy xizmatlar markazlarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankini xabardor qilgan holda ochish; ➤ jamiyat mikrokreditlar, mikroqarzlarni, mikrolizing berish va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq maslahat va axborot xizmatlari ko'rsatish mumkin.
32. Jamiyatning bozordagi ulushi to'g'risidagi ma'lumot	Jamiyat O'zbekiston Respublikasida joylashgan mikromoliya tashkilotlari orasida o'rta ulushdagi mikromoliya tashkiloti sirasiga kiradi (ushbu mikromoliya tashkilotlari ulushi Markaziy bank tomonidan kichik, o'rta va yirik bo'g'inga bo'lingan). Jamiyat O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil 01-yanvar kungi Respublikadagi mavjud mikromoliya tashkilotlarining jamlanma statistik ma'lumotiga muvofiq, bozorda quyidagi ulushlarga ega: - jami aktivlar bo'yicha: jami aktivlari 21 679 889 ming so'm bo'lib, Respublikadagi mavjud mikromoliya tashkilotlarining umumiy aktiv summasiga nisbatan 1,09 foiz ulushiga ega; - jami majburiyatlar bo'yicha: jami majburiyatlar 9 735 000 ming so'm bo'lib, Respublikadagi mavjud mikromoliya tashkilotlarining umumiy majburiyat summasiga nisbatan 1,03 foiz ulushiga ega; - jami kapitali bo'yicha: jami kapitali 9 110 528 ming so'm bo'lib, Respublikadagi mavjud mikromoliya tashkilotlarining

	umumiy kapital summasiga nisbatan 0,86 foiz ulushiga ega.		
33. Sohaning kelajakdagi taraqqiyoti borasidagi prognozlar va ushbu sohadagi jamiyatning oʻrni	Andijon viloyati hududida muqaddam 14 nafar nobank kredit tashkilotlari oʻz faoliyat yuritgan boʻlib, hozirgi kunda 4 nafar mikromoliya tashkiloti faoliyat yuritib kelmoqda. Jamiyat mazkur hudud boʻyicha faoliyat yuritib kelayotgan nobank kredit tashkilotlari ichida yetakchilardan hisoblanadi. Kelajakda jamiyat aksiyadorlik jamiyati shaklida qimmatli qogʻozlar bozoridagi faoliyatini rivojlantirish va jamiyatning qoʻshimcha filiallar hamda vakolatxonalarini ochishni rejalashtirilgan.		
	(ming.soʻm hisobida)		
	Koʻrsatkichlar	2023-yil yakunida	2024-yil yakunida
	Aktivlar	44 512 000	56 000 000
	Kredit qoʻyilmalari	36 292 000	45 000 000
	Kapital	18 332 000	26 000 000
	Ustav kapital	10 002 000	15 000 000
	Sof foyda	7 000 000	11 000 000
34. Soʻnggi 3 yil ichida yoki jamiyatning rasmiy faoliyati davrida sotilgan mahsulotlar (bajarilgan ish, xizmatlar) hajmi	Jamiyat tomonidan soʻngi 3 yil ichida rasmiy faoliyatida aholiga ajratilgan mikrokreditlar hajmi quyidagicha: ➤ 2020-yil yakuni boʻyicha 6 079 841 ming soʻm; ➤ 2021-yil yakuni boʻyicha 11 853 452 ming soʻm; ➤ 2022-yil yakuni boʻyicha 21 584 682 ming soʻm.		
35. Jamiyatning oʻz mahsulotlari (ishlari, xizmatlari)ni sotishni tashkil etish boʻyicha faoliyati	Jamiyatning asosiy faoliyati mikromoliyaviy xizmatlar koʻrsatishdan iborat. Jamiyat faoliyatining asosiy resursi boʻlib, aksiyadorlar tomonidan toʻlangan pul mablagʻlari va jalb qilingan qarz mablagʻlardan tashkil topgan. Jamiyat kredit mahsulotlarining foydalanuvchilari jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi. Kredit olgan mijozlar oʻrtasida jamiyat kredit qoʻyilmasining 10 foiz va undan ortiq qismini tashkil etuvchi ulushga ega qarzidorlar mavjud emas.		
36. Jamiyat faoliyatiga taʼsir qiladigan omillar			
a) jamiyat faoliyati asosiy turlari boʻyicha savdo (ish, xizmat) daromadlilikiga ijobiy va salbiy taʼsir qiladigan omillar	Jamiyat faoliyatining daromadlilikiga quyidagi ijobiy va salbiy omillar taʼsir koʻrsatadi: - ijobiy omillar: Jamiyatni rivojlanishi uchun taʼsir qiladigan asosiy ijobiy omillardan biri bu yurtimizda oxirgi 5 yil davomida olib borilayotgan islohotlar natijasida vujudga kelgan iqtisodiy va siyosiy barqarorliqdir. Jamiyat tomonidan berilgan kreditlarning oʻz vaqtida qaytarilishi, jamiyatga qoʻshimcha resurs va investorlar bazasining jalb qilinishi, jamiyat kredit resurslariga aholi ehtiyojining ortishi va boshqa ijobiy taʼsirlar. - salbiy omillar: jamiyat tomonidan berilgan kreditlarning oʻz vaqtida qaytmasligi ehtimoli, jamiyat resurs bazasi yetishmasligi va aholining kreditga boʻlgan talabini pasayishi, ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, karantin cheklovlari, qamal va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron toʻlov hamda taʼminot tizimidagi nosozlik, jamiyatning dasturiy taʼminot tizimiga qilingan tahdid (uchinchi shaxslar tomonidan qilingan hujumlar) sababli yuzaga keladigan vaziyatlar va boshqa salbiy taʼsirlar. Hozirgi kunda mikromoliya tashkilotlarini rivojlanishi uchun toʻsiq boʻlayotgan asosiy salbiy omillardan biri bu resurs yetishmovchiligi boʻlsa, ikkinchi omil Respublikamiz bozorida mavjud resurslarning qimmatligi va tashqi resurslar bozorida resurs mablagʻlarni jalb qilinishi juda kamligidir.		
b) jamiyatning sud jarayonlaridagi ishtiroki toʻgʻrisidagi maʼlumotlar	Jamiyatning javobgar va daʼvogar sifatida ishtirok etayotgan sud jarayonlari mavjud emas.		

v) vakolatli davlat organlari va (yoki) sud tomonidan so'nggi 3 yil davomida jamiyatga va uning boshqaruv organi a'zolariga nisbatan qo'llangan barcha ma'muriy jazolar (sanksiyalar, jumladan moliyaviy) to'g'risidagi ma'lumotlar	Oxirgi uch yil davomida vakolatli davlat organlari va (yoki) sud tomonidan jamiyatga va uning boshqaruv organi a'zolariga nisbatan ma'muriy jazo choralari qo'llanilmagan.
g) Tavakkalchilik omillari	
Jamiyat faoliyati bilan bog'liq xavf-xatarlar	Jamiyat o'z faoliyati davomida, har qanday tijorat yurituvchi yuridik shaxs sifatida, turli xil xavf-xatar, tavakkalchilik omillari bilan to'qnash keladi va jamiyatning muvaffaqiyati bu qiyinchiliklarni qanday yengib o'tishi bilan o'lchanadi. Jamiyatning ko'p yillik tajribasi asosida yaratilgan ishlash tizimi ko'p xavf-xatarlarni paydo bo'lmasidan oldinroq bartaraf qilishni ta'minlaydi.
Ma'lum turdagi faoliyatni yuritish uchun yoki muomalasi cheklangan obyektlar (jumladan, tabiiy resurslar)dan foydalanish uchun litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish imkoniyatining yo'qligi	Jamiyat Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziya asosida faoliyat yuritadi. Markaziy bank har oyda jamiyatning iqtisodiy normativ-ko'rsatkichlarini nazorat qilib boradi. Agar jamiyat tomonidan ushbu iqtisodiy normativ-ko'rsatkichlari buzgan taqdirda mazkur litsenziyani chaqirib olishi mumkin. Jamiyat faoliyatida muomalasi cheklangan obyektlar (jumladan, tabiiy resurslar)dan foydalanish ko'zda tutilmagan va bu bo'yicha qo'shimcha litsenziyaga ega emas.
Uchinchi shaxslar, jumladan, jamiyatning sho'ba tashkilotlari bo'yicha jamiyat javobgarligi	Qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan paytda jamiyatning sho'ba tashkilotlari bo'yicha javobgarligi hamda uchinchi shaxslar bo'yicha majburiyatlari mavjud emas.
Savdo hajmi mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan olinadigan jami daromadning kamida 10 (o'n) foiziga to'g'ri keladigan iste'molchilarni yo'qotish ehtimoli)	Bunday ehtimol mavjud emas, chunki jamiyatning asosiy mijozlari – mikrokredit oluvchilari bo'lib, ularga ajratiladigan kreditlar garov (ta'minlangan) asosida beriladi. Shu sababli jamiyatda mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan olinadigan jami daromadning kamida 10 (o'n) foiziga to'g'ri keladigan iste'molchilarni yo'qotish ehtimollari mavjud emas.
Tarmoq xavf-xatarlari	Jamiyatning asosiy faoliyati mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lib, quyidagilar tarmoq xavf-xatari deb ko'rsatiladi: - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 19-dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan (ro'yxat raqami 3205-son) "Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning kreditlar (mikroqarzlarni) bo'yicha qarz yukini hisoblash tartibi, qarz yukining ruxsat etilgan miqdori, shuningdek qarz yuki o'sishini cheklash to'g'risida"gi nizom talabiga muvofiq mikromoliya tashkilotlariga belgilangan foiz stavkasining eng yuqori (50% qilib belgilangan) me'yorining pasaytirilishi; - jamiyatning ta'sischi kiritgan ulushi va boshqa jalb qilingan mablag'lar hisobi kamayishi; - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan jamiyat ustav kapitaliga va beriladigan kredit foiz stavkalariga belgilangan normativlarni oshirilishi.
Jamiyat o'z faoliyatida foydalanadigan xomashyo, xizmatlar (ichki va tashqi bozorda alohida) narxlarining o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar alohida bayon qilinadi	Jamiyatning asosiy xom-ashyosi - moliyaviy resurslardir (pul). Xom-ashyo bilan bog'liq eng katta xavf - tijorat banklardagi kredit resurslarning taqchilliga va ularning foiz to'lovlari yuqoriligi. Bu xavf-xatar jamiyatning qisqa muddatli xatari bo'lib, uzoq muddatda jamiyatning faoliyatiga katta ta'sir qilmaydi. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ishlar natijasida jamiyat oldida korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarish imkoniyati, mahalliy va xorijiy banklardan kredit olish kabi yo'llarni ochib bermogda.

Jamiyat mahsulotlari va (yoki) xizmatlari narxlarining o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar (ichki va tashqi bozorda alohida), va ularning jamiyat faoliyatiga bo'lgan ta'siri alohida bayon qilinadi)	Jamiyat mahsulotlari va (yoki) xizmatlari narxlarining o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar minimal bo'lib, jamiyat faoliyatiga deyarli ta'sir qilmaydi. Chunki, foiz stavkalari, olinadigan marja va foydalar bozordagi narxlarning o'zgarishiga bog'liq emas. Har bir ajratiladigan kreditlar uchun alohida shartnoma tuzilib, unda o'sha kunda amalda bo'lgan stavkalar va shartlar qo'llaniladi va bu shartlar ikki tomon o'rtasida shartnoma shartlari to'la bajarilgunga qadar o'zgarmaydi.
Moliyaviy xavf-xatarlar	Jamiyat moliyaviy xavf-xatarlari sirasiga jamiyat o'z majburiyatlarini qoplay olmasligi, kreditor va aksiyadorlar oldidagi majburiyatlarining ortishi, moliyaviy barqarorligi to'g'risida omma ichida salbiy tasavvur yuzaga kelishi, mijozlar sonining kamayishi, ko'rsatilayotgan xizmat sifatining tushishi natijasida, jamiyatda zararlar yuzaga kelishidan iborat.
Jamiyat moliya aktivlari va moliya majburiyatlari nomuvofiqligi (jumladan, jamiyatning bir yoki bir necha kontragentlari moliya majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasligi oqibatida) va (yoki) kutilmaganda jamiyat moliya majburiyatlarini zudlik bilan bir vaqtning o'zida amalga oshirish zarurati yuzaga kelishi oqibatida jamiyat o'z majburiyatlarini to'la bajara olmasligi bilan bog'liq xatarlar alohida bayon qilinadi	Jamiyatning moliyaviy xavf-xatarlarni oldini olish maqsadida, Jamiyat maksimal darajada uzoq muddatli kreditlar va zayomlar olishga harakat qiladi hamda har qanday qisqa muddatli kreditlarni birinchi imkoniyat paydo bo'lishi bilan so'ndiradi. Uzoq muddatli kredit olish: ➤ tushum va harajatlarni oldindan rejalashtirishni; ➤ mavsumli tushumning o'zgarishlarini rejalashtirishni ta'minlaydi; ➤ har qanday kutilmaganda jamiyat moliya majburiyatlarini zudlik bilan bir vaqtning o'zida amalga oshirish zarurati yuzaga kelishini oldini oladi. Albatta, bir yoki bir necha kontragentlar moliya majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasligi oqibatida jamiyat o'z majburiyatlarini bajarishda kechikishi mumkin, lekin jamiyatning joriy aktivlari har qanday majburiyatlarni to'la bajara olmasligi bilan bog'liq xavf-xatarlarni (defolt) oldini oladi.
Huquqiy xavf-xatarlar	Jamiyat huquqiy xavf-xatarlari — jamiyat tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar va tuzilgan shartnomalarga rioya qilinmasligi, ish jarayonida huquqiy xatoliklarga (noto'g'ri yuridik maslahat yoki hujjatlarni noto'g'ri tuzilishi) yo'l qo'yilishi, huquq tizimidagi kamchiliklari, hamkorlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning buzilishi natijasida jamiyatda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq xavf-xatarlar.
Operatsion xavf-xatarlar	Jamiyat operatsion xavf-xatarlari quyidagilar hisoblanadi: - jamiyat manfaatiga qarshi qaratilgan tasodifiy yoki qasddan qilingan harakatlar, shu jumladan jamiyatning qonun talablariga va ichki me'yoriy talablariga rioya qilmasligi; - jamiyat tashkiliy tuzilmasi nomukamalligi, shuningdek jamiyat bo'limlari va xodimlarining vazifalarini to'g'ri taqsimlanmasligi; - jamiyatning ichki tizimlari, jarayonlari, axborot texnologiyalari, xodimlar harakatlarida yo'l qo'yilgan xatoliklar yoki tashqi tabiiy jarayonlar, shu jumladan tabiiy ofatlar, natijasida jamiyatda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq xatarlar.
Jamiyat qimmatli qog'ozlarini xarid qilish haqida qaror qabul qilish uchun muhim deb bilgan boshqa xavf-xatarlar	Biznesda obro'-e'tiborni yo'qotish xavf-xatari: jamiyatning moliyaviy barqarorligi to'g'risida omma ichida salbiy tasavvur yuzaga kelishi sababli, mijozlar sonining kamayishi, ko'rsatilayotgan xizmat sifatining tushishi natijasida jamiyatda zararlar yuzaga kelishi xatari. Firibgarlik xavf-xatari: jamiyatda xodimlar, mijozlar va boshqa hamkorlarning firibgarlik yoki boshqa jinoiy hatti-xarakatlari oqibatida moliyaviy zararlar ko'rish xatari.
37. Xatarlarni boshqarishda jamiyat siyosati to'g'risidagi ma'lumotlar	Xatarlarni boshqarishda jamiyat siyosatida, berilayotgan kreditlarni quyidagi mezonlariga asosan boshqariladi:

	- berilayotgan kreditlar muddatlari bo'yicha; - berilayotgan kreditning maqsadlari bo'yicha; - berilayotgan kreditni qamrab olish maydonlari bo'yicha; - berilayotgan kreditning ta'minoti bo'yicha.
38. Jamiyatning ustav kapitali to'g'risidagi ma'lumotlar	➤ ustavga ko'ra ustav kapitali hajmi: 7 204 000 000 (yetti milliard ikki yuz to'rt million) so'm; ➤ hisob balansi bo'yicha ustav kapitali hajmi: 7 204 000 000 (yetti milliard ikki yuz to'rt million) so'm; ➤ ustav kapitalining to'langan qismi miqdori: 7 204 000 000 (yetti milliard ikki yuz to'rt million) so'm.
39. Jamiyatning o'z kapitali to'g'risidagi ma'lumotlar, so'mda	Jamiyatning jami o'z kapitali qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi haqiqiy miqdori (buxgalteriya balansining ma'lumotlari bo'yicha): 9 288 101 000 (to'qqiz milliard ikki yuz sakson sakkiz million bir yuz bir ming) so'mni tashkil qiladi.
40. Zaxira fondi to'g'risidagi ma'lumot	Zaxira fondining ustav bo'yicha miqdori: ustav kapitalining 15 (o'n besh) foizi. Qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanaga zaxira fondining asl miqdori: 154 527 ming so'm. Qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanaga jamiyat ustavida belgilangan miqdorda zaxira fondi to'liq shakllantirilmagan va ustav kapitalga nisbatan 2,15 foizni tashkil etdi, ya'ni 154 527 ming so'm (buxgalteri balansining ma'lumotlari bo'yicha).
41. Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar	Jamiyatning so'ngi tugallangan yil davomida 01.01.2023-yil holatiga tuzilgan moliyaviy balans hisoboti bo'yicha quyidagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarga ega: 1. Jamiyatning to'lovga qobiliyatlilik ko'effitsiyenti quyidagi ko'rinishga ega: $K_{tk} = \frac{\text{Joriy aktivlar}}{\text{Joriy majburiyatlar}} = \frac{6\,873\,628.0}{4\,682\,261.0} = 1.49 \quad (\text{ming so'mda})$ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor jamiyatlar ishlari qo'mitasining 2005-yil 16-martdagi GS-05/0271/11-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Jamiyatlarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlil qilish ko'rsatkichlarini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomda korxonaning joriy aylanma mablag'larini joriy majburiyatlariga nisbati (qoplash ko'effitsiyenti) 1,25 dan kam bo'lsa, "Korxona to'lov qobiliyatiga ega emas" deb hisoblanishi qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha jamiyat to'lov qobiliyatiga ega, ya'ni jamiyatning o'z joriy majburiyatlarini to'lash qobiliyati yetarli deb hisoblanadi. 2. Rentabellik ko'effitsiyenti: $K_{sam} = \frac{\text{Soliq to'lagunga qadar foyda}}{\text{Jami harajatlar}} = \frac{2\,857\,887.0}{4\,380\,421.0} = 0.65$ Yuqoridagi ko'rsatkichimiz jamiyat tomonidan sarflangan har 1 (bir) so'm uchun to'g'ri keladigan foyda miqdorini ko'rsatadi. Monopol mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tashkilotlardan tashqari barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda ushbu ko'rsatkichning 0,05 dan kichik bo'lishi jamiyatning past samaradorlik bilan ishlayotganini bildiradi. Jamiyatning samaradorligi yuqori.

	3. Joriy moliyaviy (barqarorlik) mustaqillik koeffitsiyenti: $K_{mm} = \frac{\text{O'z mablag'lari manbalari}}{\text{Joriy majburiyatlar}} = \frac{9\,110\,528.0}{4\,682\,261.0} = 1.95$ Ushbu ko'rsatkichning 1,00 koeffitsiyentdan past bo'lishi jamiyatning moliyaviy tavakkalchiligi mavjudligini bildiradi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha jamiyat moliyaviy barqarorligidan dalolat beradi. 4. Mutlaq likvidlilik (likvidlik) koeffitsiyenti: $K_{ml} = \frac{\text{Pul mablag'lari} + \text{Qisqa muddatli investitsiyalar}}{\text{Joriy majburiyatlar}} = \frac{387\,757 + 4\,504\,461}{4\,682\,261} = 1.04$ Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalar bilan joriy majburiyatlarni qoplay olish darajasini ifodalaydi. Koeffitsiyentning 0,2 dan yuqori bo'lishi ijobiy tavsifga ega. Ya'ni jamiyatda jami joriy majburiyatlarning summasiga mos ravishda eng kamida 20% pul mablag'lari bo'lishi lozim.																																																																					
42. Jamiyatning hisob yuritish siyosati haqidagi ma'lumotlar	Jamiyatning hisob yuritish siyosati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan "Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risidagi"gi yo'riqnoma (30.06.2020y. 3263-son) va jamiyatning ichki hisob yuritish siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi.																																																																					
43. So'nggi 3 tugallangan moliyaviy yil uchun daromaddan foydalanish asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumotlar (ming. so'm hisobida)																																																																						
	<table><tr><th rowspan="2">Nomlanishi</th><th colspan="2">2020 yil yakuni</th><th colspan="2">2021 yil yakuni</th><th colspan="2">2022 yil yakuni</th></tr><tr><th>%</th><th>miqdor</th><th>%</th><th>miqdor</th><th>%</th><th>miqdor</th></tr><tr><td>Jami daromad:</td><td>100%</td><td>2 050 333</td><td>100%</td><td>2 569 714</td><td>100%</td><td>7 238 307</td></tr><tr><td>foizli harajatlarga</td><td>19,94%</td><td>408 766</td><td>38,46%</td><td>988 424</td><td>38,72%</td><td>2 657 785</td></tr><tr><td>foizsiz harajatlarga</td><td>2%</td><td>41 032</td><td>1,86%</td><td>47 827</td><td>2,05%</td><td>148 030</td></tr><tr><td>kredit rezerv harajatiga</td><td>1,73%</td><td>35 473</td><td>10,06%</td><td>258 502</td><td>3,99%</td><td>288 679</td></tr><tr><td>operatsion harajatlarga</td><td>33,62%</td><td>689 380</td><td>26,55%</td><td>682 309</td><td>17,77%</td><td>1 285 927</td></tr><tr><td>soliq to'lovlariga</td><td>6,91%</td><td>141 629</td><td>2,20%</td><td>56 526</td><td>6,30%</td><td>456 117</td></tr><tr><td>xazira fondiga</td><td>1,79%</td><td>36 753</td><td>1,41%</td><td>36 126</td><td>0</td><td>0</td></tr><tr><td>dividend to'lovlarga</td><td>34,01%</td><td>697 301</td><td>19,46%</td><td>500 000</td><td>0</td><td>0</td></tr></table>	Nomlanishi	2020 yil yakuni		2021 yil yakuni		2022 yil yakuni		%	miqdor	%	miqdor	%	miqdor	Jami daromad:	100%	2 050 333	100%	2 569 714	100%	7 238 307	foizli harajatlarga	19,94%	408 766	38,46%	988 424	38,72%	2 657 785	foizsiz harajatlarga	2%	41 032	1,86%	47 827	2,05%	148 030	kredit rezerv harajatiga	1,73%	35 473	10,06%	258 502	3,99%	288 679	operatsion harajatlarga	33,62%	689 380	26,55%	682 309	17,77%	1 285 927	soliq to'lovlariga	6,91%	141 629	2,20%	56 526	6,30%	456 117	xazira fondiga	1,79%	36 753	1,41%	36 126	0	0	dividend to'lovlarga	34,01%	697 301	19,46%	500 000	0	0
Nomlanishi	2020 yil yakuni		2021 yil yakuni		2022 yil yakuni																																																																	
	%	miqdor	%	miqdor	%	miqdor																																																																
Jami daromad:	100%	2 050 333	100%	2 569 714	100%	7 238 307																																																																
foizli harajatlarga	19,94%	408 766	38,46%	988 424	38,72%	2 657 785																																																																
foizsiz harajatlarga	2%	41 032	1,86%	47 827	2,05%	148 030																																																																
kredit rezerv harajatiga	1,73%	35 473	10,06%	258 502	3,99%	288 679																																																																
operatsion harajatlarga	33,62%	689 380	26,55%	682 309	17,77%	1 285 927																																																																
soliq to'lovlariga	6,91%	141 629	2,20%	56 526	6,30%	456 117																																																																
xazira fondiga	1,79%	36 753	1,41%	36 126	0	0																																																																
dividend to'lovlarga	34,01%	697 301	19,46%	500 000	0	0																																																																
44. Mazkur Risola tasdiqlangan kungacha so'nggi yil uchun affillangan shaxslar bilan tuzilgan yirik bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar	Mazkur risola tasdiqlangan kungacha so'nggi yil uchun affillangan shaxslar bilan tuzilgan yirik bitimlar tuzilmagan.																																																																					
45. Jamiyat aktivlari umumiy hajmining 10 va undan ortiq foizini tashkil etadigan aktivlar, har bir aktivning tegishli balans qiymati ko'rsatiladi	Mazkur risola tasdiqlangan kungacha jamiyat aktivlari umumiy hajmining 10 va undan ortiq foizini tashkil etuvchi aktivlar orasida balans qiymati 4 729 010 ming so'm bo'lgan bino inshoot (bosh ofis binosi) mavjud.																																																																					
46. Jamiyat aktivlari balans qiymatining 10 va undan ortiq foizi miqdoridagi debitorlik qarzi	Jamiyat aktivlari balans qiymatining 10 va undan ortiq foizi miqdorida debitorlik qarzi mavjud emas.																																																																					

47. Jamiyatning asosiy faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq va jamiyat majburiyatlari balans qiymatining 10 va undan ortiq foizini tashkil etadigan kreditorlik qarzi

2023-yilning 23-yanvar holatiga aksiyadorlik tijorat "Aloqabank" banki Andijon filialidan 1 696 000 ming so'm kreditorlik qarzdorlik mavjud.

ming so'mda

Jami kredit qarzdorlik	So'ndirish muddatlari				
	2023-yil 1-chorak	2023-yil 2-chorak	2023-yil 3-chorak	2023-yil 4-chorak	2024-yil
1 696 000	185 068	251 362	254 124	254 124	751 322

48. Jamiyat tomonidan asosiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan, jamiyat majburiyatlarining balans qiymatining 10 va undan ortiq foizini tashkil etadigan kreditorlik qarzi

Jamiyat tomonidan asosiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan, jamiyat majburiyatlarining balans qiymatining 10 va undan ortiq foizini tashkil etadigan kreditorlik qarzi mavjud emas.

49. So'ndirilmagan kreditlar (qarzar) to'g'risidagi ma'lumotlar

Aksiyadorlik tijorat "Aloqabank" banki Andijon filialidan olingan kreditlari to'g'risidagi ma'ulmot

ming so'mda

№	kredit shartnoma raqami	kreditning asosiy sharti	kredit ajratilgan sanasi	kreditning tugash sanasi	kreditning so'ndirilmagan to'lov qismi
1	525Y000001	Aylanma mablag' uchun	29.09.2021	28.09.2024	1 696 000

50. Soliq to'lovlari bo'yicha muddati o'tib ketgan qarz miqdori, so'mda

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish vaqtida jamiyatda muddati o'tgan soliq qarzlari mavjud emas.

51. Aktivlari balans qiymatining 10 va undan ortiq foizini tashkil etgan jamiyatning investitsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan paytda jamiyat aktivlari balans qiymatining 10 yoki undan ortiq foizini tashkil etuvchi investitsiyalarni amalga oshirmagan.

6-bob. Yakuniy qoidalar

52. Mazkur Risola nusxalari va asl nusxasi bilan tanishish tartibi va joyi to'g'risida ma'lumot

Jamiyatning obligatsiyalar emissiya risolasi nusxalari va asl nusxasi bilan Andijon viloyati, Andijon shahri, A.Temur shoh ko'chasi, 44-A-uy manzilida joylashgan jamiyatning ma'muriy binosida, haftaning ish kunlari soat 9⁰⁰ dan 18⁰⁰ gacha bo'lgan vaqt davomida tanishish mumkin.

Muloqot telefoni: (78) 298-12-35.

Elektron pochta manzili: info@imkonfinans.uz.

Mazkur obligatsiyalarni chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi axborot qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda yagona korporativ axborot portali (www.openinfo.uz), jamiyatning rasmiy veb-sayti (www.imkonfinans.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) oshkor qilinadi.

53. Qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi shartlari joylashtiriladigan axborot-ma'lumot tizimlari, davriy nashrlar manzillari va nomlari

Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq oshkor etilishi shart bo'lgan obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi axborot-ma'lumotlar yagona korporativ axborot portali (www.openinfo.uz), jamiyatning rasmiy veb-sayti (www.imkonfinans.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) hamda Toshkent shahri, Mirobod tumani, Buxoro ko'chasi, 6-uyda manzil bo'yicha joylashgan "Biznes-Daily Media" Nashriyot uyi mas'uliyati cheklangan jamiyatga tegishli Biznes Daily "Birja" gazetasida e'lon qilinadi.

54. Jamiyat qimmatli qog'ozlarini sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish uchun jamiyatning fikriga ko'ra oshkor etilishi zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar

Mazkur risola bandlarida jamiyat to'g'risidagi barcha zarur ma'lumotlar oshkor etilgan.